**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
[illegible] Muxamedov
____________
2023 yil “28” 08

# BOSHQA FAOLIYAT TURLARIDA SURDOTARJIMONLIK O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60112700-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati |

**Chirchiq – 2023**

| Fan/modul kodi<br>BFTS 308 | O‘quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>5-6 | ECTS - Kreditlar<br>4-4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>**Majburiy** | **Ta’lim tili**<br>**O‘zbek** | | **Haftadagi dars soatlari**<br>**4-4** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik** | 60-60 | 60-60 | 120-120 |

2.

## I. Fanning mazmuni.

Fanni o‘qitishdan maqsad –talabalarga surdotarjimonlik jarayonida nafaqat pedagogic holatlarda balki boshqa sohalarda ham ish faoliyati yuritganda to’g’ri tarjima qilish stilistikasini o’rganishdan iborat. Ushbu fanni o’rganish davomida turli kasbiy faoliyatda turli vaziyatlarni to’g’ri yechim topa olishni o’rganadilar.

Fanni o’qitish vazifasi - Globallashuvning kuchayishi bilan sayyohlik rivojlanadi, ya'ni sayohatni sevuvchilar o'zlariga foyda topadilar. Turli xil shaxsiy xizmatlarni ko'rsatadigan (masalan) va Internet bilan shug'ullanadigan odamlar talabga ega bo'ladi. Qolgan prognozlar (muhandislar, nazoratchilar va yuklovchilarni robotlar bilan almashtirish haqida) ehtimollik xarakteriga ega ekanligini o’rganadilar.

## II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### V SEMESTR

**1-mavzu. Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik fanining maqsad va vazifalari**

Imo-ishora tili tarjimonlarining ishi bir tildan boshqa tilga tarjima qilishni anglatmaydi, balki mustaqil til tizimlari sifatida qaralishi mumkin bo'lmagan turli xil aloqa turlari (imo-ishoralar, chizish, maxsus belgilardan foydalanish va boshqalar) o'rtasida almashishni o'z ichiga olishi mumkin.

**2-mavzu. Pedagogik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Turli yig'ilishlarda, konferentsiyalarda, qurultoylarda va hokazo. stullar mijozlar va tarjimon o'rtasidagi o'zaro aloqani osonlashtiradigan tarzda joylashtirilishi kerak: kar odam tarjimon bilan muammosiz ko'z aloqasini o'rnatishi kerak, eshitadigan odam esa karni osongina ko'rishi kerak.

**3-mavzu. Psixologik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Psixologik, sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, karlar eshitadigan tarjimonlardan ko'ra ma'lumotni (masalan, televizorda) karlardan olishni afzal ko'radilar, chunki kar tarjimonlar odatda til kompetentsiyasiga ustunlik beradilar va shuningdek, madaniyatni yaxshi bilishadi.

**4-mavzu. Tibbiy faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Tibbiyot tibbiybiologik, klinik, tibbiyijtimoiy va gigiyenik fanlarga boʻlinadi. Tibbiybiologik fanlarga: odam gavdasining tuzilishini oʻrganadigan anatomiya, gistologiya va sitologiya; organizmning odatdagi holatini, unda kasallikning paydo boʻlishi, avj olishi, kechishi va yuz beradigan struktur hamda funksional oʻzgarishlarni oʻrganadigan normal fiziologiya va biokimyo; patologik anatomiya va patologii fiziologiya; organizmga dorilar ta’sirini urganadigan umumiy va klinik farmakologiya, shuningdek, mikrobiologiya, virusologiya va parazitologiya, tibbiyot genetikasi va boshqa kiradi.

**5-mavzu. Marketing faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Marketing (inglizcha: market — „bozor“, „bozordagi harakat“, „faoliyat“) — korxonaning tovarlar ishlab chiqarish va sotishini tashkil etish hamda boshqarish shakli. „marketing“ atamasi iste’molga 19-asrning 60-yillarida Makkovern tomonidan kiritilgan. Marketing nazariy konsepsiya va tijorat faoliyatining oʻziga xos hodisasi tarzida 20-asr boshlarida AQShda ilk bor qoʻllanildi. Ishlab chiqarish va kapitalning yuksak darajada toʻplanishi, iqtisodiyot tarmoqlarida monopoliyalar qukmronligining, xalqaro bozorda keskin raqobatning vujudga kelishi mahsulot sotish muammosini obyektiv tarzda birinchi oʻringa chiqardi.

**6-mavzu. Muhandislik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Muhandislikning mexanik-muhandis, gidrotexnik-muhandis, kon muhandissi, harbiy muhandis, loyihalovchi muhandis, fizik-muhandis, texnolog-muhandis, quruvchi-muhandis, irrigator-muhandis va boshqa turlari bor. Muhandislar sanoat, transport, qurilish va xalq xoʻjaligining turli tarmoqlarida, ilmiy tadqiqot muassasalarida ishlaydi, muhandislik akademiyalarida, oliy texnika bilim yurtlari va boshqa muassasalarda tayyorlanadi.

**7-mavzu. IT faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Dunyoda IT sohasi shu darajada rivojlanib ketyaptiki, endilikda ayrim kompaniyalar ushbu yoʻnalishda universitetni bitirganlarni ishga olmayapti. Chunki ular oʻqigan oʻquv dasturlari ushbu rivojlanish bilan birga yangilanishga ulgurmayapti. Bu sohani yaxshi bilganlar bozorda rosa talash. Narxlar baland. Keyin ham faqat shunaqa boʻladi. Eng katta pul aynan shu yoʻnalishda.

**8-mavzu. Moliya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Moliya tizimi — iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti. Moliya tizimi faqat moliya munosabatlarini emas, balki moliyaga taallukli siyosiy, tashkiliy munosabatlarni ham qamrab oladi

**9-mavzu. Buhgalteriya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Buxgalteriya hisobi - bu operatsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish, moliyaviy hisobotlarni yuritish, ichki audit o'tkazish, moliyaviy yoki menejmentga tegishli ma'lumotlarni hisobot qilish va tahlil qilish usullari bilan bog'liq bo'lgan amaliyot va bilimdir.

**10-mavzu. Geologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Geologiya fan sifatida odamlarning amaliy faoliyati negizida tarkib topdi va rivojlandi. Uzoq oʻtmishda odamlar temir, mis, oltin kabi sof metallar qatori qalay, mis birikmalariga boy rudalarni ham topa bilganlar. Shuningdek, ular Yerning, togʻ jinslarining hosil boʻlishi, quruqlik va dengizlarning tarqalish masalalarini hal etishga ham uringanlar.

**11-mavzu. Huquqshunoslik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Huquqshunoslik, yurisprudensiya — huquqii ijtimoiy nor-malarning alohida tizimi sifatida, huquqning alohida tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umuman siyosiy tizimning faoliyatini oʻrganuvchi fan. H. — eng qad. ijti-moiy fanlardan biri. Uning tarixan vujudga kelishi huquqning paydo boʻlishi va rivojlanishi bilan bogʻliq-dir.

**12-mavzu. Reklama faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Reklama korxona imijini yaratish (uzoq davrli ta’sir koʻrsatish), joriy sotish hajmini koʻpaytirish (qisqa davrli ta’sir koʻrsatish), haridorlarga nima sotib olishni va uni nima uchun sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashish va boshqa maqsadlarda olib boriladi. Reklamaning asosiy vazifasi — xaridorni qiziqtirish, mijoz xaridorlarni yoʻqotmaslik va ularni kengaytirishga qaratiladi.

**13-mavzu. Nashriyot faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Noshirlik, nashriyot ishi — nashriyotlar tashkil etish, kitoblar, gazeta, jurnallar, tasviriy san’at asarlari va b. bosma mahsulotlarini tayyorlash, nashr qilish va uni tarqatishga oid soha. Nashriyotlar chiqaradigan mahsulotining turiga qarab — kitob nashriyoti, kitob-jurnal nashriyoti, gazeta-jurnal nashriyoti va b., qanday oʻquvchilarga moʻljallanganligiga koʻra — ilmiy adabiyot, ommaviy adabiyot, bolalar adabiyoti, oʻsmirlar adabiyoti nashriyotlari va hokazoga boʻlinadi; mavzusiga koʻra — universal va muayyan sohaga ixtisoslashgan nashriyotlar bor. Universal nashriyotlar (Mas, "Oʻzbekiston" nashriyoti) barcha xil yoki koʻp turdagi, ixtisoslashgan nashriyotlar (Ibn Sino nomidagi nashriyot va b.) muayyan soha boʻyicha kitoblar nashr etadi

**14-mavzu. Aviatsiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Aviatsiyada samolyotlar, vertolyotlar, planerlar ishlatiladi. Shu apparatlardan parvoz qilish (uchish) uchun foydalanadigan tashkilot (xizmat) ham Aviatsiya deb ataladi. Aviatsiya fuqaro A va harbiy Aviatsiyaga boʻlinadi. Fuqaro Aviatsiyasi yoʻlovchilar va yuklarni tashishda ishlatiladi. Uning transport, sanitariya xizmatiga, oʻquv-sport va maxsus ishlarga moʻljallangan (qishloq xoʻjaligida, aloqada, geologiya-qidiruv ishlarida, baliq ovlash va boshqalarda ishlatiladigan) xillari bor.

**15-mavzu. Biznes faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati bu- iqtisodiy foydadir) — o‘z tavakkalchiligi ostida amalga oshiriladigan, mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatishdan muntazam ravishda daromad olishga qaratilgan mustaqil faoliyat sanaladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu lavozimda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak

**VI SEMESTR**

**1-mavzu. Dizayn faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Dizayn tafakkuri bu ko'nikmalar to'plamiga asoslangan muammolarni hal qilishning innovatsion jarayoni. Ushbu yondashuv bir necha o'n yillar davomida mavjud bo'lib, lekin u faqatgina 2008 yilgi Garvard Business Review jurnalining IDEO dizayn kompaniyasi rahbari va prezidenti Tim Braunning "Dizayn tafakkuri" nomli maqolasidan so'ng dizaynerlik jamiyatidan tashqarida o'z kuchini topa boshladi

**2-mavzu. Amaliy san’at faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

San’at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a’zolarini ma’lum ruxda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg‘u, manfaat, ideallarini ifoda etgan. San’at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o‘zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi.

**3-mavzu. Menejment faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish) — maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to‘g‘risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv ob’yekti orasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san’ati sirlarini o‘rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir.

**4-mavzu. OAV faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: OAV) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma, bulleten va boshqalar) va/yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko‘rsatilgan

**5-mavzu. Arxitektura faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Arxitektura — foydalanishdagi maqsad va vazifalar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik qarashlaridan kelib chiqib bino va inshootlarni loyihalash va qurish san'ati. Me'mor inson hayoti va faoliyati uchun zarur fazoviy muhitni tafakkur kuchi bilan avval ijodiy loyihada rejalab, uni amalda yuksak did va mahorat bilan bunyod etadi. Me'morlik asarlari qatoriga turli-tuman binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, shaharlar, ulardagi monumentlar, usti ochiq va yopiq inshootlar kiradi.

**6-mavzu. Harbiy faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Harbiy - sho'ro lar davrida harbiy safarbarlik va umumiy harbiy xizmatga chaqirish, zaxi-radagi harbiylarni hisobga olish ishlari bilan shug'ullanuvchi mahalliy harbiy boshqarish organi. O'zbekiston Respublikasida Harbiy o'rniga Mudofaa ishlari boshqarmasi (viloyat) va bo'limlari (shahar va tuman) tuzilib, uning asosiy vazifasi: harbiy safarbarlikka tayyorlash va o'tkazish, aholi va xalq xo'jaligi resurslarini hisobga olish, yoshlarni harbiy xizmatni o'tashga tay-yorlash va boshqa mudofaa tadbirlarini amalga oshirishdan iborat. Unga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi va harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonlari rahbarlik qiladi.

**7-mavzu. Siyosat faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Siyosat — bu qarorlar qabul qilish va oqilona natijalarga erishish uchun ataylab ishlab chiqilgan ko'rsatmalar tizimidir. Siyosat niyat bayonoti bo'lib, protsedura yoki protokol sifatida amalga oshiriladi. Siyosat, odatda, tashkilot ichidagi boshqaruv organi tomonidan qabul qilinadi. Siyosat sub'ektiv va ob'ektiv qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin. Subyektiv qarorlar qabul qilishda qo'llaniladigan siyosatlar, odatda, yuqori boshqaruvga bir qator omillarning nisbiy afzalliklariga asoslanishi kerak bo'lgan qarorlar qabul qilishda yordam beradi va natijada ob'ektiv ravishda sinab ko'rish qiyin, masalan, ish va hayot muvozanati siyosati.

**8-mavzu. Iqtisod faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Iqtisodiyot — bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasi. Umuman olganda, u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi.[1] Muayyan iqtisodiyot — bu asosiy omillar sifatida uning madaniyati, qadriyatlari, ta'limi, texnologik evolyutsiyasi, tarixi, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzilishi, huquqiy tizimlari va tabiiy resurslarini o'z ichiga olgan jarayonlar to'plamidir.

**9-mavzu. Diplomatiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Diplomatiya — davlatlarning tashqi siyosat, sohasidagi vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyati. „Diplomatiya" termini yunon tilidagi „ikki bukilgan qog'oz" so'zidan olingan.

| | |
|---|---|
| | **10-mavzu. Reablitatsiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**<br>Reabilitatsiya ( lot. rehabilitatio — tiklash) (tibbiyotda) — organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui. Ogʻir kasalliklar (miokard infarqti, insult, orqa miya shikastlanishlari, umurtqa pogʻonasi va boʻgʻimlarning shakli oʻzgarishi bilan kechadigan kasalliklari); markaziy nerv sistemasining jiddiy zararlanishlari, ruhiy kasalliklar va boshqalarga uchragan bemorlar R. ga koʻproq muhtoj boʻladilar<br><br>**11-mavzu. Jurnalistika faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**<br>Jurnalistika — ijtimoiy faoliyat turi. Bu faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni toʻplash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari va boshqalar) orqali tarqatish bilan shugʻullanadi. Jurnalistika ommaviy targʻibot va tashviqot shakllaridan biri. Jurnalistikaning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bogʻliq. Jurnalistika atamasi dastlab jurnallar majmuiga, keyinchalik barcha davriy nashrlarga nisbatan qoʻllanilgan.<br><br>**12-mavzu. Ko'chmas mulk faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**<br>Ko'chmas mulk xususiy mulkning alohida namunasidir. Ko'chmas mulk kengroq atama; yerni, binolarni va boshqa qurilishlarni shuningdek, ushbu yerdan foydalanish va undan foyda olish, qurilishlarini ko'paytirish huquqini beradi. Ijarachilar va lizing oluvchilar o'zlarining shaxsiy mulklari hisoblanadigan yer uchastkalari yoki binolarda yashash huquqiga ega bo'lishilari mumkin, lekin bu ularning ko'chmas mulki hisoblanmaydi.<br>Shaxsiy mol-mulk zaxiralar, obligatsiyalar va boshqa investitsiyalar kabi nomoddiy aktivlarni o'z ichiga oladi; ijaraga beruvchining ruxsati bilan uyga o'rnatilgan mebellar, kompyuter, kir yuvish mashinasi ham shaxsiy mulk hisoblanadi.<br><br>**13-mavzu. Defektologik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**<br>Defektologiya (lot. defectus -nuqson va ...logiya) — jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini oʻrganish, ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish, undagi nuqsonlarni yoʻqota borish qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan. Koʻr va koʻzi ojiz, kar va qulogʻi ogʻir, aqli zaif, tayanch-harakat appa-ratida nuqsoni bor, nutq kamchiligiga ega boʻlgan bolalar D. fani ob'yek-tidir.<br><br>**14-mavzu. Turizm faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**<br>Turizm (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sogʻlomlashtirish, ma'rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq toʻlanadigan faoliyat bilan shugʻullanmagan holda uzogʻi bilan 1 yil muddatga joʻnab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. |

**15-mavzu. Xalqaro turdagi professional sport faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**

Sport (ing. sport — o‘yin) — jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarni turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g‘alabalarga erishishdir. Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda bo‘lib o‘tgan. Xalqaro olimpiada qo‘mitasi tashkil qilinganidan keyin sport juda tez rivojlana boshladi. 1896-yilda 1-zamonaviy Olimpiada o‘yinlari o‘tkazildi.

## III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**V SEMESTR**

1. Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik fanining maqsad va vazifalari
2. Pedagog faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
3. Psixologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
4. Tibbiy faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
5. Muhandislik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
6. IT faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
7. Moliya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
8. Geologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
9. Buhgalteriya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
10. Geologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
11. Huquqshunoslik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
12. Reklama faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
13. Nashriyot faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
14. Aviatsiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
15. Biznes faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari

**VI SEMESTR**

1. Dizayn faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
2. Amaliy san’at faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
3. Menejment faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
4. OAV faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
5. Arxitektura faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
6. Harbiy faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
7. Siyosat faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
8. Iqtisod faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
9. Diplomatiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
10. Reablitatsiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
11. Jurnalistika faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
12. Ko’chmas mulk faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari
13. Defektologik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari

| | |
|---|---|
| | 14. Turizm faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari<br>15. Xalqaro turdagi professional sport faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari<br><br>**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.<br><br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: V SEMESTR**<br>1. O'zbek imo-ishora tili fani predmeti, maqsadi va vazifalari, obyekti, tamoyillari.<br>2. Imo-ishora tillari<br>3.Bosh va yuz shakli tuzulishi imo-ishoradi o'rni<br>4. Tana a'zolari tili<br>5. Yuz ifodasini anglash san'ati<br>6. Imo-ishora xarakatlari aniqlash<br>7. Tana tili<br>8. Bosh va peshona shakllari<br>9. Qoshlar imo-ishoradagi holati<br>10. Ko'zlar imo-ishoradagi holati<br>11. Burun va o'g'iz imo-ishoradagi holati<br>12. Tish va til imo-ishoradagi holati<br>13. Iyak va quloqlar imo-ishoradagi holati<br>14. Soch va psixologik xarakteristika<br>15. Xusnihatga qarab asosiy xususiyatlarni aniqlash<br><br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: VI SEMESTR**<br>1. O'zbek imo-ishora tili fanining maqsad va vazifalari<br>2. Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot<br>3. Til va nutq<br>4. O'zbek imo-ishora tili fonetikasi<br>5. O`zbek adabiy tili me'yorlari<br>6. O'zbek imo-ishora tili grafika va orfografiyasi<br>7. O'zbek imo-ishora tili leksikologiyasi<br>8. O'zbek imo-ishora tili leksikografiyasi<br>9. O'zbek imo-ishora tili frazeologiyasi<br>10.O'zbek imo-ishora tili punktuatsiya qoidalari<br>11.O'zbek imo-ishora tili morfemikasi |

| | |
|---|---|
| | 12.Hujjat turlari va ish yuritish asoslari<br>13.Hujjatlar bilan ishlash<br>14.Notiqlik san'ati haqida umumiy ma'lumot<br>15.Nutqning kommunikativ sifatlari |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik fanining maqsad va vazifalari,Pedagogik, Psixologiya faoliyat, Tibbiy faoliyat, Muhandislik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, IT faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Moliya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Geologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Buhgalteriya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Geologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)**<br>- Buhgalteriya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish, Geologiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Huquqshunoslik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Reklama faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Nashriyot faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Aviatsiya faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Biznes faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari**foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>- Ko'chmas mulk faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Defektologik faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Turizm faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari, Xalqaro turdagi professional sport faoliyat turlarida surdotarjimonlik qilish asoslari **malakalarga ega bo'lishi kerak**. |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. "O'zbekiston karlarining imo-ishora nutqi", 2011 yil<br>2. Denis Draga, "RJY", Moskva 2011 yil<br>3. R.Fradkina, "Gapiruvchi qo'llar" Moskva 2001<br>4. Avvalboyeva D., Imo-ishora tili,Toshkent 2021<br>5.Sultonsaidova S., O'.Sharipova. O'zbek tili stilistikasi.//O'quv qo'llanma. –T., 2009. |

| | |
|---|---|
| | **XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Avvalboyeva D., Imo-ishora tili,Toshkent 2021<br>2. Qodirova F.U., Sayfullayeva I.Q., Inklyuziv va korreksion ta'limda Art texnologiyalar, 2022 yil, ZEBO_PRINT<br>3. Qodirova F.U., Achilova S.J., Dehqanova M.G', Logopedik texnologiya. 2023 yil<br>4. Qodirova F.U., Dehqanova M.G'., Pulatova D.A., Ibadullayeva SH.N., Surdopsixologiya, 2023 yil<br>5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.<br>6. Jiyanova N., Mo'minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. 1va 2-kitob. –Toshkent: Navro'z, 2016.<br>**Axborot manbalari**<br>http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.<br>http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.<br>www.pedagog.uz<br>www.cspi.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.edu.uz<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "_______" _________________dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>Dehqanova M.G'.- Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Teshaboyeva Feruza - Qo'qon davlat pedagogika institute, maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti (Phd);<br>Samarova Shohista – CHDPU, Pedagogika fakulteti, Psixologiya kafedrasi mudiri. |